

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2024 № 1 (24)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2024 № 1 (24)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Muxamedjanova Lalixon Ashuralieva

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy begonalashuv va uni bartaraf etish yo'llari.....9-16

Nadirova Zoyira Payanovna

Intuitsiya kognitiv tafakkurda qaror qabul qilishimizga ko'maklashuvchi omil sifatida.....17-20

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Tulenova Gulmira Jandarovna

Ta'lim tizimining samaradorligi va sifatini oshirishning asosiy omillari.....21-29

Abdullayev Temur Bobir o'g'li

Tafakkur uslubi transformatsiyasida ongning falsafiy xususiyatlari30-35

Usmanov Muhridin Abdimuratovich

Idrokning davr va obrazlarni tasavvur qilishdagi roli36-43

TARIX FALSAFASI VA FALSAFA TARIXI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari.....44-50

Xidirov Mustafu Toyirqulovich

Ilmiy maktablarning shakllanishi va ularning ilmiy faoliyatni tashkil etishdagi amaliy ahamiyati51-58

Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li

Daniel Dennetning ong nazariyasi: keng qamrovli tahlil59-67

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR


Nishanova Ozoda Djalolitdinovna

Go'zallik kategoriyasi va uning o'zbek etnomadaniyatidagi o'rni68-76

Ruziyeva Ruxsora Xodiyevna

Vaqtning qiymati – inson umrining eng oliy qadriyati.....77-83

UDK: 17.022.1:008 (575.1)

 10.5281/zenodo.12611662

Arziqulov Elboy Azim o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti
Etika va estetika kafedrası o'qituvchisi
E-mail: earziqulov94@gmail.com
(Toshkent, O'zbekiston)

**O'ZBEK XALQ EPOSLARIDAGI MA'NAViy QADRIYATLARNI
BARKAMOL AVLOD MA'NAViy-MA'RIFIY KAMOLOTIGA
TA'SIRINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA
VOSITALARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalari haqidagi ilmiy-nazariy fikr mulohazalar o'rin olgan bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat, mardlik va halollikni ulug'lovchi tuyg'ularni zamonaviy usul va vositalar hamda ilmiy metodlar yordamida yetkazish zarurligi borasidagi qarashlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviyat, marifat, axborot, meros, qadriyat, epos, oila, jamiyat.

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ПОВЫШЕНИЯ
ВЛИЯНИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ
В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ЭПИКАХ НА
ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СОВЕРШЕННОГО
ПОКОЛЕНИЯ**

Аннотация. в данной статье изложены научно-теоретические мнения о современных методах и средствах повышения влияния духовных ценностей в узбекских народных эпосах на духовно-образовательную зрелость зрелого поколения. В сердцах молодого поколения возникает потребность. передать чувства любви к Родине, уважения к родителям, верности друзьям, храбрости и честности с помощью современных методов и средств и научных методов.

Ключевые слова: молодежь, духовность, просвещение, информация, наследие, ценность, эпос, семья, общество.

MODERN METHODS AND MEANS OF INCREASE THE INFLUENCE OF THE SPIRITUAL VALUES IN UZBEK FOLK EPICS ON THE SPIRITUAL-EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF THE PERFECT GENERATION

Annotation. this article contains scientific-theoretical opinions about modern methods and means of increasing the influence of spiritual values in uzbek folk epics on the spiritual and educational maturity of the mature generation. In the hearts of the young generation, there is a need to convey the feelings of love for the motherland, respect for parents, loyalty to friends, bravery and honesty with the help of modern methods and tools and scientific methods.

Key words: youth, spirituality, enlightenment, information, heritage, value, epos, family, society.

KIRISH

O‘zbek xalq eposlaridagi ma’naviy qadriyatlar tarixan kelajak avlod ma’naviy-ma’rifiy kamolotida alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu boisdan, o‘zbek xalq eposlaridagi ma’naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma’naviy-ma’rifiy kamolotiga ta’sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalarini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Chunki hozir axborot oqimi tobora kuchayib borayotgan davrda azaliy an’analarimiz zavol topishining oldini olish, yoshlarimiz ma’naviy olamini yanada yuksaltirish, ma’rifiy bilimlarni mustahkamlash har jihatdan qarz va farzdir.

“O‘zbek xalq eposlari shunchaki yaratib qolingan emas. Balki, eposning yaratilishi, mumtoz shakl va mazmun olishi etnos hayoti, taqdiri bilan chambarchas bog‘liq kechadi. Etnosning tarixi, ma’naviy, diniy-e’tiqodiy, madaniy, iqtisodiy-siyosiy borlig‘i eposda o‘ziga xos badiiy timsollarda aks etadi” [Turdimov Sh, 2011]. O‘zbek xalq eposlari o‘zida boy ma’naviy qadriyatlarni mujassamlashtirgan bo‘lib, unda hozirgi zamon yoshlarida vatanga muhabbat, millatni e‘zozlash, do‘stga sadoqat kabi xususiyatlarni shakllantirida muhimdir.

Shu o‘rinda “Alpomish” dostonidagi quyidagi misralar fikrimizning yaqqol dalilidir.

“Mard yigitning yori talash bo‘lami?

Er yigitning yorin qalmoq olami?

Aka, aytgan so‘zim og‘ir olmagin,

Narmoda ishini bunda qilmagin” ...tarzidagi achchiq gaplari xalqning haq gaplari bo‘lib, har bir yigit - qizni or-nomusli, tadbirli bo‘lishga chorlaydi [Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 1998].

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo‘lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh baytidir” deb aytgan so‘zlari ham yuqoridagi fikrlarimizni yanada mustahkamlaydi [Karimov I.A. 2008].

Biz bu maqsadga erishmog‘imiz yo‘lida avvalo, xalqimizning juda boy, mazmunan teran, donishmanona badiiy adabiy merosi va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan iqtisodiy jihatdan arzon ta’lim va tarbiya usullariga tayanib ish

tutmog‘imiz maqsadga muvofiqdir. Zero, adabiyotga e‘tibor - kelajakka va ma‘naviyatga e‘tibor ekanligini unutmasligimiz darkordir.

Mamlakatimiz aholisining uchdan ikki qismi mobil aloqadan, ellik foizidan ortig‘i internetdan foydalanar ekan, bu o‘z o‘rnida ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib va tashviqni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatib turibdi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Xalq dostonlarining barkamol avlod ma‘naviy-ma‘rifiy kamolotiga ta‘sirini yanada oshirishda ayniqsa, boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta‘lim maskanlarida “Dostonxonlik” kechalarini tashkil etish va buni mavsumiyligiga emas, balki muntazamligiga e‘tiborni kuchaytirish darkor. Shuningdek, yozma, dostonchilikka oid turli to‘garaklarni tashkil etish va mavjudlarini jonlantirish, xalq dostonlari bilimdonligi bo‘yicha turli musobaqalarni tashkil etish ham zarurdir.

Xalq dostonlaridagi ma‘naviy-ma‘rifiy qadriyatlarni yoshlar qalbi va ongiga yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan “Aqliy hujum”, “Tarmoq”, “Loyiha”, “Zanjir”, “Uchga to‘rt” “Archa” kabi turli usul va metodlardan keng foydalanish ham bizningcha muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yosh avlod qalbiga insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, iftixor kabi tuyg‘ularini shakllantirishda qahramonlik va donishmandlik kitobi “Kitobi dada Qo‘rqut” yoki (“Qo‘rqut ota kitobi”)ning ham ahamiyati beqiyosdir. Bu asar o‘rta asrlar turkiy xalqlar eposining yuksak namunalaridandir. Uning tarkibiga kirgan hikoya va dostonlarning ayrimlari VII-VIII asrlarda og‘zaki ravishda yaratila boshlagan.

“Qo‘rqut ota kitobi”ning bizgacha ikki qo‘lyozmasi yetib kelgan. Ular Drezden va Vatikan kutubxonalarida saqlanadi. Bu qo‘lyozmalarni olimlar XIX asrdan boshlab o‘rganib keladilar.

Qo‘rqut ota ismi bilan ham mashhur bo‘lgan siymo o‘z vaqtida odamlarga yaxshilik qilish, mushkullarini osonlashtirishda ko‘makdosh bo‘lgani bilan ham yoshlarimizga ibrat namunasidir. Hazrat Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida bu zot haqida shunday yozadi: “Qo‘rqut ota turk ulusi orasida shuhrati andin ortig‘roqdurki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha o‘zidin burunqini, necha yil o‘zidin so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mav‘izimizg‘a mag‘izliq so‘zlari alarda bor” [Alisher Navoiy, 2011].

Xalqimizning ma‘naviy hayotining durdona javohirlaridan bo‘lgan eposlarni qanchalik ko‘p targ‘ib va tashviq qilsak, o‘shib kelayotgan yosh avlod ongi va qalbiga shunchalik behad ma‘naviy xazinani sochgan bo‘lamiz.

“Umuman olganda qadriyatshunoslik tarixining eng teran jihatlarini faqat G‘arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan holi bo‘lmasa kerak” [Nazarov Q, 2004]. Shu sababdan o‘zbek xalqining qadriyatlarini tarannum etgan eposlar barkamol avlodni tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi.

O‘ylaymizki, buyuk ajdodlarimiz, qomusiy allomalarimiz Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Mirzo Ulug‘bek, A.Navoiy va boshqalar,

xalq dostonlar tinglab voyaga yetganlar. Shu boisdan yoshlar orasida dostonxonlik, kitobxonlik madaniyatini o‘stirish muhim ma’no va ahamiyatga egadir. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga doir xalq dostonlari va badiiy adabiyotlarni tahlil qilish asnosida ko‘plab Sharq allomalari tomonidan yaratilgan nodir qo‘lyozma asarlar ham diqqatimizni tortdi. Xususan, Abu Nasr Forobiyning “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Buyuk kishilarning naqllari”, “Musiqqa haqida katta kitob”, “Fuqarolik siyosati” va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloq-odob va ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, “Yodgorliklar”, “Qonuni Mas’udiy”, “Geodeziya”, “Mineralogiya” va “Astronomiya” kabi asarlarni yoshlarni mantiqiy tafakkurini boyitishga hamda ularda aniq hisob-kitob amallarini bajarishga shuningdek, jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy mezonlarga hurmat hissini oshirishga xizmat qiladigan asarlardir. Yusuf Xos Hojibning “Qutatg‘u bilig” asari, “islomiy turkiy adabiyotni boshlabgina qolmay, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko‘tardi. Ushbu asar nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti an‘analari, balki qardosh xalqlar, jumladan, forsiy adabiyot tajribalarini ham ijodiy o‘zlashtirgan holda yozilgan. Ushbu asar XI asr so‘z san‘atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtmoyiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an‘analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan” [6]. Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida “davlatni idora qilish usullari, qo‘shinni tashkil etish qoidalari, urushlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan turli harbiy uslublar singari qator siyosiy, huquqiy, harbiy va axloqiy g‘oyalar va me‘yorlarni o‘z ichiga olgan” [7] eng mukammal asarlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, XX asrning boshlarida porlagan jadidchi allomalarimizning asarlari zahirida ham yoshlarning ma’naviy kamolotini yuksaltirish borasidagi qimmatli fikrlarini ham unutmazlik lozimdir.

Bugungi kunda hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz (OAV) tasavvur eta olmaymiz. Bu o‘rinda bir paytlar Farhodni sehrlagan “Oinayi jahon” bugun butun dunyoni sehrlab olgan deyish mumkin. OAV har qanday axborot va yangilikni aholining keng qatlamiga ta’sirchan yetkazishning beqiyos vositasiga aylanib ulgurdi. “O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkindir” [8]. Shu boisdan o‘zbek xalq eposlaridagi ma’naviy qadriyatlar targ‘ibotida undan keng ko‘lamli va izchil, istiqbolli foydalanish mumkin.

O‘zbek xalq eposlaridagi ma’naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma’naviy-ma’rifiy kamolotiga ta’sirini oshirishda zamonaviy texnika, texnologiya, axborot kommunikatsiyalari yutuqlariga asoslanib yoshlar tafakkurini boyitishga yo‘naltirish muhim masala sanaladi. Chunki texnika taraqqiyoti olg‘a borayotgan kompyuter texnikasi, internet tarmog‘i orqali “xalqaro o‘rgimchak to‘ri”ga bog‘langan yoshlarni umuman, tobora yuksakroq axborotlashib borayotgan jamiyatni faqat texnika yutuqlariga tayangan usul-vositalar bilan turli tahdid va yot ta’sirlardan muhofaza etish anchayin samaraliroq nazarimizda. “Jahonda birinchi veb-saytni Berners-Li <http://info.cern.ch> manzili bo‘yicha yaratgan, endi sayt arxivda saqlanadi. Ushbu sayt Internetda 1991-yil 6-avgust kuni onlayn paydo

bo‘lgan” [9] bo‘lsa hozirgi vaqtda bunaqangi veb-saytlarning sonini oxiriga yetish bir muncha qiyindir.

O‘z o‘rnida o‘zbek xalq eposlaridagi ma’naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma’naviy-ma’rifiy kamolotiga ta’sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalariga qanchalik barvaqt va katta e’tibor qaratsak shunchalik jamiyatimiz kishilari, ayniqsa yoshlar ma’naviyatini yanada yuksaltirishga baholi qudrat imkon topamiz. Albatta bu borada bugungacha juda ko‘p ishlar amalga oshirilganligini e’tirof etganimiz holda mavjudlari bilan cheklanib qolmay balki, yangi va yanada samarali usullarga diqqat qaratmog‘imiz lozim bo‘ladi. Bular sirasiga esa avvalo, o‘zbek xalq eposlarini to‘liq jildlarini sharhlari bilan elektron variantlarini internetlardagi ijtimoiy tarmoqlarga kiritish, ularning soni va sifatini muntazam boyitib borish, ularni avvalo, bugungi o‘quvchi yoshlar qiziqishiga ko‘ra tavsiflash maqsadga muvofiq bo‘lsa, boshqa bir jihatdan uzluksiz va izchillikda “Online” tarzidagi “Dostonxonlik”, “Online adabiy muloqot”larni uyishtirib turish, uyali aloqa vositalari shuningdek yozma, kompyuterlarga mo‘ljallab o‘zbek xalq eposlari bo‘yicha elektron test majmualarini tuzish, xalq dostonlaridagi hikmatli so‘zlar yoki she’riy bayt misralarini topishga qaratilgan krossvordlar tayyorlash, shuningdek yozma, yoshlarni intellektual salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan va muayyan bir doston mohiyatini ifodalagan multimedialarni yaratish, o‘zaro topqirlikka qaratilgan zakovatli o‘yinlarni yaratish bizningcha maqsadga muvofiq.

Mavzumiz doirasida o‘zbek xalq eposlaridagi ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni o‘zida ifodalagan hamda uning mazmunini yoshlarga yetkazib berishga qaratilgan radio eshittirishlarni yanada jonlantirish, “Munosabat plyus”ga o‘xshagan teleko‘rsatuvlarda xalq eposlariga oid muloqotlarni kuchaytirish, shuningdek yozma, ma’lum bir dostonlar asosidagi sahnabop asarlarni, hujjatli, ilmiy, badiiy filmlarining muntazam kuchaytirishga e’tibor qaratish bizningcha maqsadga muvofiq.

Gazeta va jurnallar sahifalarida xalq eposlari ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy tahliliga oid maqolalarni yanada ko‘paytirib borish, imkon doirasida qadimiy dostonlarning bir butun holda, har bir asarini qisqacha ma’no-mazmunini ifodalagan to‘plamlarni chop etishga qaratilgan ishlarni yanada jonlantirish kabilar ayni muddao bo‘lgan bo‘lardi.

Xalq dostonlarini o‘rganishga oid kurslar tashkil etish, internet tarmoqlari orqali adabiyotshunos, dostonshunos olimlar bilan bevosita muloqotni yo‘lga qo‘yish, xalq dostonlari bo‘yicha erkin insho tanlovlarini o‘tkazish, bundan tashqari bugungi kunda yoshlarimizning turli tillarni o‘rganishga qiziqishi ortayotganligini hisobga olib darslarda, xususan chet tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil mashqlar uchun xalq eposlarini tarjima qilish bo‘yicha turli topshiriqlarni muntazam berib borishi ham bizningcha muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek xalq eposlari avvalo, insonni sog‘lomlikka, poklikka chorlaydi. “Sog‘lomlik” tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, ma’naviy sog‘lomlik yuqori o‘rinda turadi. “Sog‘lom tanda – sog‘lom aql hukmronlik qiladi” deganlaridek inson tanasi sog‘lom bo‘lishi barobarida ma’naviy yetuklik darajasi ham yuqori bo‘lishi talab etiladi [T.Mirzayev: 2013].

Xalq eposlari bugungi globallashuv, turli madaniyatlar uchrashgan chorrahada yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda, yuksaltirishda, tegishli mustaqil xulosalar chiqarishga yaqindan yordam beradi.

Bugungi yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olib uni qondirishga xizmat qiladigan xalq dostonlari tizimidagi pandnoma-didaktik mohiyatni yanada yuksakroq ifodalagan epizodlik voqea va lavhalarni kichik-kichik hajmlarda, sodda va ravon tushunarli tilda taqdim etish hamda yozuv daftarlari jildlariga doston qahramonlari timsolini va ma'lum dostonlardan o'rin olgan ibratli naql va hikmatlardan berib borish ham muhim ahamiyatga ega deb o'ylaymiz. Bundan tashqari xalq dostonlarini g'oyaviy-falsafiy mohiyatini sharhlagan qo'llanmalar yaratish ham bugungi yoshlar ma'naviy kamolotini yuksaltirishda muhim ma'no kasb etadi.

Bu haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarini yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha sa'y-harakatlarini o'zida mujassam etgan O'zbekiston-2030 strategiyasidagi ustuvor vazifalarga ham to'xtalib o'tishni zarur deb toptik. Xususan: "O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish, ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish, maqom, baxshichilik, raqs va teatr yo'nalishlarida kamida 10 ta xalqaro festival va anjumanlar o'tkazish, milliy qahramonlar haqida 10 ta multiplikatsion film va seriallar ishlab chiqarish lozimligi belgilab qo'yilgandir.

XULOSA

O'zbek xalq eposlaridagi ma'naviy qadriyatlarni barkamol avlod ma'naviy-ma'rifiy kamolotiga ta'sirini oshirishning zamonaviy usullari va vositalariga tayanib ish tutish mavzumiz doirasida ko'tarilgan masalalarga yechim topishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli buzg'unchi g'oya va mafkuralardan holi dostonlar xalqning, millatning tarixiy taraqqiyot jarayonida orttirgan boy tajribalarini, hayot mezonlarini, orzu-umidlarini, kelajak ideallarini obrazli tarzda ifodalab qissadan hissa chiqarish tamoyiliga asoslangan holda jamiyat kishilarini ma'naviy-axloqiy yetuklikka, estetik go'zallikka tomon yetaklaydi. Shu nuqtai nazardan inson ma'naviy tarbiyasida uning rolini oshirib borish hamisha dolzarb ahamiyatga egadir.

O'zbek xalq eposlari mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qilishi barobarida mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan loqaydlik, beparvolik, boqimandalik, dangasalik, tabiatga nisbatan bepisandlik, kalondimog'lik va ayni damda "Ommaviy madaniyat" orqali kirib kelayotgan illatlarni bartaraf etishga yaqindan yordam beradi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi tavsiyalar kelib chiqadi:

Birinchidan, o‘zbek xalq eposlarini targ‘ib va tashviq etishning kompleks dasturini ishlab chiqish, mavjudlarini esa, taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, yuksak ma’naviy ideallarni o‘zida ifodalagan o‘zbek xalq eposlarini saralash, ularni elektron variantlari hamda bosma nashrlarini ko‘paytirishga e’tiborni yanada oshirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, hozirgi globallashuv, integratsiyalashuv va turli madaniyatlar uchrashgan chorrahada xalq eposlari milliy o‘zlikni saqlash va asrab-avaylashdagi muhim rolini hisobga olib; oila, bog‘cha, maktab hamda undan keyingi ta’lim-tarbiya tizimida unga bo‘lgan e’tiborni oshirib borish lozim.

BIBLIOGRAFIYA

1. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent. “Fan”, 2011. – 240 b.

2. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni //Aytuvchi: Fozil yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi: M.Zarifov. –Toshkent. Sharq, 1998. –B.74.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent. Ma’naviyat, 2008. –B.33.

4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n yettinchi tom Nasoyim ul-muhabbat. –Toshkent, 2011. <http://navoi.natlib.uz>:

5. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent. Faylasuflar milliy jamiyati, 2004. -B. 6.

6. <https://oliymahad.uz/41621>

7. <https://turkic.world/uz/articles/other/37007>

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi 15.01.2007 yildagi O‘RQ-78-son qonuni 5-moddasi. <https://lex.uz/docs/-1106870>

9. <https://infocom.uz/qiziqarli-faktlar-butun-jahon-orgumchak-tori-internet-va-domenlar-tarixidan/>

10. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

**FALSAFA VA HAYOT//
ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ//
PHILOSOPHY AND LIFE**

Tahririyat manzili	Адрес редакции	Editors Address
100085, O'zbekiston Toshkent, Sergeli tumani, Mehrigiyo ko'chasi -6	100085, Узбекистан, Ташкент Сергелинский район, Улица Мехригиё- 6	100085, Uzbekistan Tashkent Sergeli, Mehrigiyo street-6

Veb-sayt: <http://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2018/03/01/03pdf>
www.tadqiqot.uz ; E-mail: falsafa-h@mail.ru, Shermuhamedova_n@mail.ru
Telefon: (+99890) 358-62-70

MUASSISLAR:	УЧРЕДИТЕЛИ:	FOUNDERS:
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati OOO tadqiqot	Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека Международный научно- исследовательский центр Имом ал Бухори при кабинете Министров Республики Узбекистан Философское общество Узбекистана OOO tadqiqot	The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek International Research Center Imom al Bukhori at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan Philosophical Society of Uzbekistan OOO tadqiqot

Tahririyat sifatli maqolalarni tanlash huquqini saqlagan holda taqdim etilayotgan materiallarning aniqligiga javob bermaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Редакция оставляет за собой право отбора качественных статей и не несет ответственности за достоверность информации в представленных материалах.

The editors reserve the right to select quality articles and is not responsible for the reliability of the information in the submissions.

Подписано для сайта
Тошкент шаҳри

Заказ №.